

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZLARI FAOLIYATINI YANADA KENGAYTIRISH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA

Mamlakatimizning barcha tuman va shaharlarida Adliya vazirligi tizimida yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatining yo'lga qo'yilishi o'zining ijobiy samarasini ko'rsatmoqda. Bu borada, yuridik xizmat ko'rsatiladigan davlat idoralarining markazlarga yuboriladigan hujjatlari loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish va qabul qilish jarayonlarini elektron shaklga o'tkazuvchi "E-huquqshunos" elektron tizimi yaratildi, ish yuritushi to'liq raqamlashtirilib, qog'ozbozlikka barham berildi.

207 ta tuman va shaharlardagi 2 mingdan ortiq davlat organlarida huquqni bir xil qo'llash amaliyoti shakllandi hamda aholiga va bevosita ijrochilarga qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini yetkazish va tushuntirishning yangi bo'g'ini yaratildi.

Shu bilan birga, yuridik xizmati mavjud bo'limgan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini, ayniqsa, o'rta va quyi bo'g'inda huquqiy jihatdan ta'minlash hamda ularga sifatli va professional yuridik xizmat ko'rsatish maqsadida:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5168-son [qarori](#) bilan respublikaning barcha tuman va shaharlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarining huzurida yuridik xizmat ko'rsatish markazlari (keyingi o'rinnarda — Markazlar) tashkil etilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda huquqiy xizmat ko'rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-89-son [Farmoniga](#) muvofiq Markazlar tuman (shahar) adliya bo'limlari tuzilmasi va bo'ysunuviga o'tkazilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Adliya vazirligining 2022-yil 1-avgustdan boshlab bosqichma-bosqich Markazlar tomonidan respublikaning barcha tuman va shaharlarida yuridik xizmat bilan ta'minlanmagan davlat organlari va tashkilotlarining quyidagi tuman (shahar) bo'linmalariga yuridik xizmat ko'rsatilishini ta'minlash to'g'risidagi taklifi ma'qullansin:

mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi;

qishloq xo'jaligi bo'limi;

turizm va madaniy meros bo'limi;

sportni rivojlantirish bo'limi;

oila va xotin-qizlar bo'limi;

davlat soliq inspeksiyasi;

aholi bandligiga ko'maklashish markazi;

davlat umumiyl o'rta ta'lim maktablari;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;

davlat ko'p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalar.

3. Quyidagilar:

Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan respublikaning barcha tuman va shaharlarida yuridik xizmat bilan ta'minlanmagan davlat organlari va tashkilotlari tuman (shahar) bo'linmalari,

davlat umumiy o'rta ta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ko'p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalari qamrab olinishi reja-grafiqi [1-ilovaga](#) muvofiq;

Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatining qamrovini oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

4. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda:

2022-yil 1-mayga qadar "E-huquqshunos" elektron tizimini texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash va maslahatlar berib borish maqsadida "call-markaz" faoliyatini yo'lga qo'yish;

2022-yil 1-avgustga qadar mazkur qarorning 2-bandi [ikkinci — sakkizinch xatboshilarida](#) ko'rsatilgan davlat organlari va tashkilotlarining tuman (shahar) bo'linmalarini "E-huquqshunos" elektron tizimiga shartnoma asosida ulash va ularga xizmat ko'rsatish;

bosqichma-bosqich davlat umumiy o'rta ta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ko'p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalarni "E-huquqshunos" elektron tizimiga bepul asosda ulash va ularga xizmat ko'rsatish choralarini ko'rsin.

5. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Adliya vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimidagi "UNICON-SOFT" MChJ takliflariga asosan "E-huquqshunos" elektron tizimini Markazlar va ular yuridik xizmat ko'rsatadigan davlat organlari va tashkilotlari tuman (shahar) bo'linmalari faoliyatiga joriy qilishda "E-huquqshunos" elektron tizimidagi ma'lumotlarni saqlash va ulardan xavfsiz foydalanish hamda tizimning yuqori tezlikda ishlashini ta'minlash maqsadida "UNICON-SOFT" MChJni tegishli server va boshqa zarur qurilmalar bilan ta'minlab borsin.

Belgilansinki, mazkur bandda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

6. Adliya vazirligi 2022-yil 1-dekabrga qadar viloyat darajasidagi davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlariga Markazlar tomonidan yuridik xizmat ko'rsatilishini yo'lga qo'yish bo'yicha asoslantirilgan takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritinsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5168-son [qaroriga 3-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

Belgilansinki, [3-ilova](#) 2022-yil 1-avgustdan e'tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib adliya vaziri R.Q. Davletov hamda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh.X. Shermatov belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijo uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi B.D. Islamov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijadorligi to'g'risida 2022-yil 1-dekabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 18-mart,
PQ-173-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 18-martdagি
PQ-173-son [qaroriga](#)
1-ILOVA

**Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan respublikaning barcha tuman va shaharlariда
yuridik xizmat bilan ta'minlanmagan davlat organlari va tashkilotlari tuman (shahar)**

**bo'linmalari, davlat umumiy o'rta ta'lif maktablari, maktabgacha ta'lif tashkilotlari hamda
ko'p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalari qamrab olinishi**

REJA-GRAFIGI

T/r	Hududlar	Tuman (shahar) soni	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi, turizm va madaniy meros, sportni rivojlantirish hamda oila va xotin-qizlar bo'limlari, davlat soliq inspeksiyalari, aholi bandligiga ko'maklashish markazlari soni	Davlat umumiy o'rta ta'lif maktablari soni	Maktabgacha ta'lif tashkilotlari soni	Ko'p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalar soni
			Muddat			
			2022-yil	2022-2023- yillar	2023-yil	
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	17	118	726	436	97
2.	Andijon viloyati	16	110	767	546	97
3.	Buxoro viloyati	13	89	537	451	93
4.	Jizzax viloyati	13	90	553	216	46
5.	Qashqadaryo viloyati	15	103	1 217	415	97
6.	Navoiy viloyati	11	74	368	205	51
7.	Namangan viloyati	14	95	712	588	89
8.	Samarqand viloyati	16	110	1 267	702	75
9.	Surxondaryo viloyati	15	104	933	384	114
10.	Sirdaryo viloyati	11	74	318	192	47
11.	Toshkent viloyati	22	147	884	530	109
12.	Farg'ona viloyati	19	130	959	883	141
13.	Xorazm viloyati	13	89	549	353	83
14.	Toshkent shahri	12	72	340	478	79
Jami:		207	1 405	10 130	6 379	1 218

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 18-martdagи
PQ-173-son qaroriga
2-ILOVA

**Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatining qamrovini oshirish bo'yicha
"YO'L XARITASI"**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
-----	-----------------------------	----------------------------------	---------------------	-----------------------------

1.	<p>“Ijro.gov.uz” tizimi negizida ishlab chiqilgan “E-huquqshunos” elektron tizimi (keyingi o‘rinlarda — “E-huquqshunos” elektron tizimi) dagi ma’lumotlarni saqlash va ulardan xavfsiz foydalanish hamda tizimning yuqori tezlikda ishlashini ta’minalash maqsadida tegishli server qurilmalari va zarur texnik vositalar bilan ta’minalash.</p>	<p>1. “E-huquqshunos” elektron tizimiga ularishi rejalashtirilgan qo’shimcha tashkilotlarning ish hajmini hisob-kitob qilish asosida, ma’lumotlarni saqlash va ulardan xavfsiz foydalanish hamda tizimning yuqori tezlikda ishlashini ta’minalash maqsadida “UNICON-SOFT” MChJni tegishli server qurilmalari va zarur texnik vositalar bilan ta’minalash choralarini ko’rish.</p> <p>2. Ajratilgan server qurilmalarida “E-huquqshunos” elektron tizimidagi hujjatlar saqlanishini ta’minalash.</p>	2022-yil iyul	<p>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Shermatov), Adliya vazirligi (R. Davletov)</p>
2.	<p>Yuridik xizmat ko’rsatish markazlari (keyingi o‘rinlarda — Markazlar) tomonidan mahalla va nuroniylarni qo’llab-quvvatlash, oila va xotin-qizlar, qishloq xo’jaligi, turizm va madaniy meros hamda sportni rivojlantirish bo’limlari, aholi bandligiga ko’maklashish markazlari, davlat soliq inspeksiyalariga yuridik xizmat ko’rsatilishini tashkil etish.</p>	<p>1. Markazlar tomonidan yuridik xizmat ko’rsatish belgilanayotgan tashkilotlar rahbarlarini elektron raqamli imzo bilan ta’minalash.</p> <p>2. Markazlar tomonidan yuridik xizmat ko’rsatish belgilanayotgan tashkilotlar bilan “UNICON-SOFT” MChJ o’rtasida “E-huquqshunos” elektron tizimiga ularish bo’yicha shartnoma tuzilishini ta’minalash.</p> <p>3. Yuridik xizmat ko’rsatish belgilanayotgan tashkilotlarga “E-huquqshunos” elektron tizimida shaxsiy kabinet yaratib berish, ularni himoyalangan apparat qurilmalari bilan ta’minalash.</p> <p>4. Markazlar tomonidan xizmat ko’rsatiladigan davlat tashkilotlarining yuqori tezlikdagi optik tolali Internet tarmog’iga ularishini ta’minalash.</p> <p>5. Yuridik xizmat ko’rsatish belgilanayotgan tashkilotlarning mas’ul xodimlari uchun “E-huquqshunos” elektron tizimidan foydalanish bo’yicha joylarda seminarlar tashkil etish.</p>	2022-yil aprel — iyul	<p>“UNICON.UZ” fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi” DUK ta’sischiligidagi “UNICON-SOFT” MChJ, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Shermatov), Adliya vazirligi (R. Davletov), Mahalla va nuroniylarni qo’llab-quvvatlash vazirligi (T. Xudaybergenov), Oila va xotin-qizlar davlat qo’mitasi (Z. Mahkamova), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov), Turizm va madaniy meros vazirligi (A. Abduxakimov), Sportni rivojlantirish vazirligi (A. Ikramov), Qishloq xo’jaligi vazirligi (J. Xodjayev), Davlat soliq qo’mitasi (Sh. Kudbiyev)</p>